



Ulug'bek RAVSHANOV,
Tadqiqotchi, Oriental universiteti

O'zMU professori O'.Tilavov taqrizi asosida

GLOBAL AXBOROT MAKONI SHAROITIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIIYANING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada global axborot makoni sharoitida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari ko'rib chiqiladi. «Ma'naviyat», «ma'rifat» va «tarbiya» tushunchalari pedagogik va aksiologik nuqtai nazardan tahlil etiladi. O'zbek klassik pedagogik merosidan tortib zamonaviy xorijiy tadqiqotlargacha bo'lgan keng ilmiy manba bazasiga tayanib, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning tarkibiy komponentlari, uni maktab jarayoniga integratsiya qilish yo'llari va samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shartlar tizimlashtiriladi. Maqolada shu narsa asoslanadiki, ma'naviy tarbiya faqat alohida tarbiyaviy tadbirlar orqali emas, umumiy maktab muhitini ma'naviy jihatdan yo'naltirish orqali amalga oshishi mumkin. Tadqiqot natijalari o'qituvchilar, maktab rahbarlari va ta'lim sohasidagi tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, global axborot makoni, umumiy o'rta ta'lim, pedagogik aksiologiya, milliy qadriyatlar, komil inson, maktab madaniyati, axloqiy tarbiya, tarbiya komponentlari, pedagogik integratsiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО ВОСПИТАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОГО ИНФОРМАЦИОННОГО ПРОСТРАНСТВА

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы организации духовно-просветительского воспитания в общеобразовательных учреждениях в условиях глобального информационного пространства. Понятия «духовность», «просвещение» и «воспитание» анализируются с педагогической и аксиологической точек зрения. На основе широкой научной базы — от классического узбекского педагогического наследия до современных зарубежных исследований — систематизируются структурные компоненты духовно-просветительского воспитания, пути его интеграции в школьный процесс и система педагогических условий, обеспечивающих его эффективность. В статье обосновывается, что духовное воспитание может быть реализовано не только через отдельные воспитательные мероприятия, но прежде всего через духовную ориентацию общей школьной среды. Результаты исследования имеют практическое значение для учителей, руководителей школ и исследователей в сфере образования.

Ключевые слова: Духовно-просветительское воспитание, глобальное информационное пространство, общее среднее образование, педагогическая аксиология, национальные ценности, совершенный человек, школьная культура, нравственное воспитание, компоненты воспитания, педагогическая интеграция.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF SPIRITUAL-EDUCATIONAL UPBRINGING THE CONTEXT OF THE GLOBAL INFORMATION SPACE

Annotation

This article examines the theoretical and practical foundations of organizing spiritual-educational upbringing in general secondary education institutions within the context of the global information space. The concepts of "spirituality", "enlightenment", and "upbringing" are analyzed from pedagogical and axiological perspectives. Drawing on a broad scientific base — ranging from the classical Uzbek pedagogical heritage to contemporary foreign research — the structural components of spiritual-educational upbringing, pathways for its integration into the school process, and the system of pedagogical conditions ensuring its effectiveness are systematized. The article substantiates that spiritual upbringing can be realized not only through separate educational events, but primarily through the spiritual orientation of the general school environment. The research findings are of practical significance for teachers, school administrators, and researchers in the field of education.

Key words: Spiritual-educational upbringing, global information space, general secondary education, pedagogical axiology, national values, ideal person, school culture, moral education, components of upbringing, pedagogical integration.

Kirish. Jamiyat hayotida axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan kengayishi inson ongi va dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimlarining cheksizligi, raqamli muhitning yoshlar ongini shakllantirishdagi ortib borayotgan roli pedagogika fanini va umumiy o'rta ta'lim amaliyotini yangi vazifalar oldida qoldirmoqda. Shu zaminda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi hozirgi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham alohida dolzarflik kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishilganidan buyon ta'lim sohasini yangilash, shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchini ma'naviy jihatdan tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash tarbiya jarayonining markaziy maqsadiga aylandi. Biroq global axborot makoni sharoitida ushbu maqsadga erishish

uchun mavjud pedagogik usul va yondashuvlarni yangitdan ko'rib chiqish zarurati sezilarli darajada ortdi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning pedagogik asoslarini ilmiy tahlil etish o'zbek pedagogikasida o'z ildizlariga ega bo'lgan mavzudir. Ushbu mavzuning dolzarbligini shundan iboratki, bir tomondan, milliy an'analarda mustahkam poydevor mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, axborotlashgan jamiyatning yangi shart-sharoitlari eski yondashuvlarni mukammallashtirishni taqozo etadi. Mazkur maqolada aynan shu ikki jihatning uyg'unligi — mumtoz pedagogik meros va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning nazariy asoslari tizimlashtiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi pedagogika fani doirasida ko'p asrlar davomida tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib, global axborot makoni shakllangan hozirgi davr sharoitida ushbu masala yangi mazmun va

dolzarblilik kasb etmoqda. O'zbek ma'naviy-pedagogik tafakkurining tarixiy ildizlari IX–X asrlarga borib taqaladi.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida komil insonni tarbiyalash masalasi davlat va jamiyat boshqaruvining markaziy vazifasi sifatida belgiladi. Uning pedagogik konsepsiyasida tarbiya usullariga oid qarashi pedagogika fani uchun alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, «Birinchi usul qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi va ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi va malakalar vujudga keltiriladi» [1]. Forobiyning pedagogik merosini o'rgangan tadqiqotlarda esa olim «Fozil odamlar shahri»da o'n ikki tug'ma xislatni o'zida mujassam etgan kishigina axloqli va ma'naviy inson bo'la olishini, bu xislatlarning tarbiya orqali rivojlantirilishini asoslagani ta'kidlanadi [2].

XI asrda yashagan Yusuf Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» («Baxt-saodatga elituvchi bilim») asarida ma'naviy tarbiyaning pedagogik asoslarini yanada amaliy tarzda ifodaladi. Asarda bilim va axloqning uzviy aloqasi pedagogik maqol sifatida bayon etilgan. «Ulug' ishdur ezgu, yetolmas kishi, tikib jon uni eplay olmas kishi. Tugal ezgulikni yetuk er qilar, qilolmas bu ishni bilimsiz kishi» degan misrada bilimning ijtimoiy maqomi va axloqiy ahamiyati birgalikda ifodalangan [3].

XV asr o'zbek adabiyoti va madaniyatining ulug' namoyandasi, «Mahbub ul-qulub» asari muallifi Alisher Navoiy ma'naviy tarbiyaga o'zgacha pedagogik mazmun baxsh etdi. Uning asarlarida «komil inson» g'oyasi — jismonan sog'lom, aqlan tetik, ma'naviy barkamol insonning obrazi ma'naviy tarbiyaning oliy ideali sifatida gavdalanadi. O'zbek olimlari J.Hasanboev, M.Turobova va boshqalarning ma'naviy tarbiya asoslariga bag'ishlangan darsligida Navoiy merosiga shunday baho beriladi: «Navoiy ijodida ma'naviy tarbiya nafaqat axloqiy normalarni o'zlashtirish, balki insonning ichki dunyosini va amaliy xatti-harakatini bir butunlikda takomillashtirish jarayoni sifatida tasvirlanadi» [4].

Zamonaviy o'zbek pedagogikasida «ma'naviyat» tushunchasini tizimli o'rgangan olimlardan biri J.Yo'ldoshev bo'lib, u mazkur tushunchani «insonning madaniy-axloqiy mukammallik darajasi, uning vatanga, xalqqa, insoniyatga xizmat qilishga tayyorligi va qobiliyati» sifatida belgilaydi [5]. Bu ta'rif madaniy-tarixiy va vatanparvarlik mazmunini oldinga chiqaradi hamda o'zbek pedagogikasidagi ma'naviy tarbiyaning o'ziga xos milliy xususiyatini ifodalaydi.

Shu bilan birga, rus pedagogikasida ma'naviyat tushunchasini chuqur o'rgangan T.I.Vlasovning fikrlari ma'naviyatni abstrakt falsafiy kategoriya sifatida emas, insonning yashash tarzini belgilovchi amaliy-pedagogik hodisa sifatida qarashga imkon beradi. Uning ta'rificha, «ma'naviyat insonning ichki dunyosidagi qadriyatli to'liqlikni ifodalovchi konstrukt bo'lib, u insonning o'y-orzulari, his-tuyg'ulari, ruhiy holatlari, ma'no-mazmunlari, xatti-harakatlarini, haqiqat, ezgulik va go'zallikka — oliy qadriyatlarga intilishni o'zida mujassam etadi» [6].

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, R.Jo'raev tarbiyani ijtimoiy jarayon sifatida, bunda keksa avlod yosh avlodga umuminsoniy va milliy madaniy tajribani, axloqiy normalari va qadriyatlarini tizimini ongli va maqsadli ravishda o'tkazishi sifatida baholaydi [7]. Bu qarash ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning ijtimoiy-pedagogik tabiatini ochib beradi.

O'zbekistonlik taniqli olima O.Musurmonova ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani tashkil etishdagi asosiy pedagogik shartlarni o'rganib, maktabda ma'naviy-axloqiy muhitni yaratish; o'quv dasturlariga ma'naviy mazmunni integratsiya qilish; o'qituvchi kasbiy madaniyatini ma'naviy-axloqiy asosda rivojlantirish; ot-onalar va mahalla jamoasini tarbiya jarayoniga jalb etish kabi shartlarni aniqlagan [8].

Binobarin, Q.Yo'ldoshevning tadqiqotlari ham ushbu sohada alohida o'rin tutadi. U ma'naviy tarbiyani o'zbek pedagogikasining milliy xususiyati nuqtai nazaridan tahlil etib, shunday xulosaga keladi: «Milliy tafakkurdagi yangilanish ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga da'vat etilgan muassasalar tizimi faoliyatida ham tub burilishlar bo'lishi lozimligini taqozo

etdi. Jamiyat a'zolari ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda maktab ta'limining imkoniyatlari juda katta bo'lganligi uchun ham mustaqillikka erishilganidan buyon uni yangilangan sharoit talablari darajasida tashkil etishga o'rinish kuchaydi» [9].

E'tiborlisi shundaki, xorijiy tadqiqotchilar orasida G.Sipolane maktab boshqaruvida ma'naviy-axloqiy yo'naltirishning o'quv va tarbiyaviy natijalarga ijobiy ta'sirini isbotladi. Uning xulosasiga ko'ra, ma'naviy tarbiyani boshqarishning samaradorligi maktab direktorining rahbarlik uslubi va umumiy maktab madaniyati orqali belgilanadi [10].

Yuqorida ko'rib chiqilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi keng ilmiy meydonda qamrab olgan bo'lib, o'zbek mumtoz pedagogikasidan zamonaviy xorijiy tadqiqotlarga ham bo'lgan uzluksiz ilmiy izlanishlar majmuini tashkil etadi. Shu bilan birga, global axborot makoni sharoitida ushbu tarbiyaning pedagogik mexanizmlarini aniqlash mavzusi hali to'liq yoritilmagan va tadqiqotni davom ettirishni taqozo etadi.

Tahlil va natijalar. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning pedagogik asoslarini tahlil etish uchun, avvalo, ushbu tarbiya nimani o'z ichiga olishi va u qanday tarkibiy tuzilishga ega ekanini aniqlash lozim. Amalga oshirilgan adabiyotlar tahlili natijasida ma'lum bo'ldiki, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya uchta asosiy tarkibiy qismdan iborat: kognitiv, emotsional-baholovchi va amaliy-xulqiy komponentlar. Kognitiv komponent axloqiy va ma'naviy tushunchalar haqidagi bilimlarni, ijtimoiy normalar va qadriyatlarni anglashni o'z ichiga olsa, emotsional-baholovchi komponent axloqiy ideallarga nisbatan ichki munosabatni, umumbashariy his-tuyg'ularni shakllantirishga xizmat qiladi. Amaliy-xulqiy komponent esa o'zlashtirilgan qadriyat va normalarning kundalik xatti-harakatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Bu uchlik modelning ahamiyati shundaki, u tarbiyani bilim berish bilan cheklab qo'ymaydi, balki shaxsning yostig'i, ya'ni ichki ma'naviy dunyosini shakllantirishni maqsad qilib oladi.

Ta'kidlash lozimki, global axborot makoni sharoitida mazkur uchta komponentning o'zaro muvozanatini ta'minlash avvaligiga nisbatan ancha murakkablashdi. Raqamli muhitda yoshlar axborotning behisob oqimiga duchor bo'lmoqda va bu holat kognitiv komponentning ortiqcha yuklanishiga, emotsional va amaliy komponentlarning esa sust rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Axborot makonida milliy qadriyatlar bilan zid keladigan ta'sirlar, begona madaniy namunalar va psevdopadriyatlar keng tarqalganligini hisobga olsak, maktabning ma'naviy tarbiyadagi roli yanada mas'uliyatli tus oladi.

Shu munosabat bilan umumiy o'rta ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shartlar tizimini aniqlash zarurati tug'iladi. Tadqiqot davomida aniqlangan va amalda sinovdan o'tgan bir qator shartlar mavjudki, ularni mantiqiy ketma-ketlikda bayon etish mumkin.

Birinchi shart — umumiy maktab muhitini ma'naviy jihatdan yo'naltirishdir. Ma'naviy tarbiya faqat alohida tarbiyaviy soatlar yoki ma'ruzalar orqali amalga oshirilishi mumkin, degan tasavvur pedagogik nuqtai nazardan noto'g'ri. Aslida, maktab hayotining barcha jabhalari — o'quv fanlaridan tortib sinfdan tashqari tadbirlar, sport va san'at mashg'ulotlarigacha, umumiy maktab an'analari va muomala madaniyatigacha — ma'naviy tarbiyaning ajralmas maydonlaridir. Adabiyot va tarix darslarida axloqiy mavzular tabiiy tarzda ko'tariladi, jismoniy tarbiya darslari irodalilik va jamoaviylikni tarbiyalaydi, san'at darslari ezgulik va go'zallikka muhabbat uyg'otadi. Demak, ma'naviy tarbiya umumiy pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi bo'lishi lozim.

Ikkinchi pedagogik shart — o'qituvchining ma'naviy-axloqiy namuna sifatidagi roli. Maktab o'quvchisi dastlab ko'rib, kuzatib, undan keyin o'zlashtiradi. O'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki ma'naviy andoza hamdir. Shu sababli o'qituvchi kasbiy madaniyatini ma'naviy-axloqiy asosda rivojlantirish pedagogik jarayonning muvaffaqiyatini belgilovchi omillarning birisi. O'qituvchi o'z xulq-atvori, sabr-qanoati, insonparvarligi va mutolaa madaniyati orqali o'quvchilarga ma'naviy tarbiyani o'z-o'zidan misol tariqasida singdiradi.

Bunga qo'shimcha ravishda shuni aytish mumkinki, oila va mahalla jamoasini tarbiya jarayoniga jalb etish ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. O'quvchi maktabda olgan ma'naviy taassurot va bilimlar oilaviy muhitda davom etmasa yoki oila tomonidan inkor etilsa, ushbu tarbiya ichi bo'sh va samarasiz bo'lib qolishi xavfi tug'iladi. Shuning uchun maktab-oila-mahalla uchligi ma'naviy tarbiyaning mustahkam pedagogik poydevorini tashkil etadi.

Global axborot makoni sharoitida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya mazmunini yangilash zarurati ham tobora kuchayotgan masala. Tezkor o'zgarayotgan raqamli muhitda yoshlarning axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va ma'naviy immunitetini shakllantirish pedagogik tarbiyaning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Zero, axborot makonida soxta qadriyatlar o'zlikni asrash uchun shaxsning ichki ma'naviy mustahkamligi zarur. Ushbu mustahkamlikni shakllantirish esa maktab pedagogikasining bevosita vazifasidir.

Maktab boshqaruvi tizimi ham ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning samaradorligini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Maktab rahbari ma'naviy tarbiyani tashkiliy jihatdan ta'minlashi, pedagogik jamoani ushbu yo'nalishda birlashtirishi, maktab ichidagi madaniy muhitni maqsadli ravishda shakllantirishi lozim. Rahbarlik uslubi va maktab madaniyati o'rtasidagi uyg'unlik ma'naviy tarbiyaning institutsional zaminini vujudga keltiradi.

Tahlil natijalaridan yana bir muhim xulosa chiqarish mumkin: ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning samaradorligini baholash masalasi hozircha tizimsiz va yetarli metodologik bazaga ega emas. Ma'naviy rivojlanishni aniq ko'rsatkichlar orqali o'lchash mushkul masala bo'lib, bu sohada metodik yondashuvlarni ishlab chiqish amaliy pedagogikaning navbatdagi vazifasidir. Biroq baholash mezonlari mavjud bo'lmasa-da, tarbiya jarayoni o'z-o'zidan davom etaveradi — pedagog zimmasidagi ma'suliyat esa bundan kamayib ketmaydi.

Umumlashtirib aytganda, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun uch asosiy yo'nalishda ish olib borilishi maqsadga muvofiq: maktab muhitini ma'naviy jihatdan yo'naltirish, o'qituvchi kasbiy madaniyatini yuksaltirish va oila-mahalla ishtirokini kuchaytirish. Ushbu uch yo'nalish bir-birini to'ldirgan holda uyg'un amalga oshirilgandagina ma'naviy tarbiya haqiqiy pedagogik samaraga erishadi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot davomida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning pedagogik asoslari keng ilmiy manbalar tahlili va mantiqiy tahlil orqali ko'rib chiqildi. Olingan natijalar bir qator muhim xulosalarni qilish imkonini beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya pedagogikaning alohida tarmog'i emas, balki umumiy o'rta ta'lim jarayonining uzviy

ADABIYOTLAR

1. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 67.
2. Xoshimov S. Abu Nasr Forobiy'ning ta'lim-tarbiya berishga oid pedagogik va psixologik qarashlari // *Ekonomika i sotsium*. №12(91)-1, 2021. – B. 668–671.
3. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1971. – B. 138.
4. Hasanboev J., Turotova M., Hasanboeva O. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – B. 47.
5. Yo'ldoshev J.G'. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 14.
6. Власова Т.И. Духовность в системе профессионального воспитания будущих педагогов // *Известия Южного федерального университета. Педагогические науки*. 2012. №12. – С. 27–35.
7. Jo'raev R. Pedagogika. – Toshkent: «Fan», 2010. – B. 87.
8. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik asoslari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 1998. – B. 84.
9. Yo'ldoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot instituti. – B. 5.
10. Sipolane G. Moral education and school leadership: comparative perspectives // *International Journal of Educational Leadership*. 2020. Vol. 14, №2. – P. 112–129. DOI: 10.1080/13632434.2020.1734589.

tarkibiy qismidir. Uning samaradorligi o'quv fanlari mazmuniga va tarbiyaviy tadbirlarga mahkam bog'liq emas — aksincha, u maktab muhitining umumiy ruhiy-ma'naviy yo'naltirilganligiga bog'liq. Ma'naviy tarbiya maktab hayotining barcha jabhalariga sindirilganda va har bir pedagog tomonidan ongli ravishda amalga oshirilganda g'oyaviy mazmun kasb etadi.

Global axborot makoni sharoitida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning mazmuni va usullari yangilanishni taqozo etadi. Yoshlarning axborot makonida ongli va mustaqil mavqeini shakllantirish, ularda tanqidiy fikrlash va ma'naviy immunitet ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchi va maktab rahbari oldida turgan dolzarb vazifadir. Bu vazifa mumtoz pedagogik meros va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar sintezi asosida ijobiy yechimini topishi mumkin.

O'zbek mumtoz pedagogikasi — Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy merosi — zamonaviy ma'naviy tarbiya uchun nafaqat tarixiy manba, balki hozirda ham amaliy ahamiyatini saqlagan nazariy-metodologik poydevordir. Komil inson g'oyasi, bilim va axloqning uzviy aloqasi, ma'naviy kamolot yo'lidagi tizimli tarbiya tamoyillari — bular bugungi pedagogik amaliyotga organik ravishda singdirilishi mumkin bo'lgan g'oyalardir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy tarbiyani o'quv dasturlariga integratsiya qilishning aniq pedagogik mexanizmlari ishlab chiqilishi va amalga tadbir etilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, o'qituvchilarni malaka oshirish tizimida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya nazariyasi va amaliyotiga doir modullarni kuchaytirish zarur. Uchinchidan, raqamli muhitda yoshlarning ma'naviy-axloqiy mustahkamligini shakllantirishga qaratilgan alohida pedagogik dasturlar va metodik qo'llanmalar yaratilishi lozim. To'rtinchidan, maktab-oila-mahalla hamkorligini institutsional shakllar orqali mustahkamlash ma'naviy tarbiya samaradorligini oshirishning amaliy yo'llaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Beshinchidan, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning samaradorligini baholashning ilmiy-metodik mezonlari va instrumentariysi ishlab chiqilishi zarur, zero hozirgi kunda ushbu yo'nalish nazariy pedagogikada to'liq yechimini topmagan masala bo'lib qolmoqda.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya umumiy o'rta ta'lim muassasalarida uzluksiz, maqsadli va tizimli tashkil etilgan taqdiridagina o'z pedagogik maqsadiga erishadi. Global axborot makonidagi yangi tahdid va imkoniyatlar bu jarayonni inkor etmaydi, aksincha, uni yanada ma'suliyatli va pedagogik jihatdan puxta tashkil etishni taqozo etadi.